

# Axborot- kutubxona markazi Axborot –bibliografiya xizmati

“Amir Temur-tarixni o’zgartirgan buyuk shaxs”



Buyuk sarkarda, davlat arbobi Amir Temur  
tavalludining 690 yilligi (1336-1405) munosabati  
bilan tayyorlangan bibliografik esdalik

**“Buyuk ajdodimiz Amir Temur o‘z davrida adolat, tartib va bunyodkorlikni ustuvor qilib, qudratli davlat barpo etgan. Uning hayoti va faoliyati biz uchun ibrat maktabidir.”**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev

### **Kirish**

XIV asrning o‘rtalarida Movarounnahr va unga qo‘shni hududlarda siyosiy parokandalik hukm surar edi. Mo‘g‘ullar istilosidan keyin Markaziy Osiyo hududida mustaqil hokimiyatlar shakllanib, har bir amir o‘z hududida hukmronlik qilardi. Bu esa xalqning turmush darajasiga, savdo yo‘llarining xavfsizligiga va madaniyatning rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatgan. Ana shunday murakkab davrda tarix sahnasiga Amir Temur chiqdi.

Amir Temur 1336-yilda Kesh (hozirgi Shahrisabz) yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ildi. U yoshligidan jasoratli, qat‘iyatli va zakovatli bola sifatida tanildi. Temur o‘zining harbiy iste‘dodi va siyosiy zakovati bilan tez orada mahalliy hukmdorlar e‘tiborini qozondi. Uning hayoti va faoliyati xalqning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarib, Movarounnahrni qudratli davlatga aylantirdi.

Temurning hokimiyatga kelishi nafaqat siyosiy barqarorlikni ta‘minladi, balki iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi. U o‘z davlati uchun qat‘iy qonun-qoidalar joriy qildi, soliqlarni tartibga soldi, savdo yo‘llarini xavfsiz qildi. Shaharlar obodonlashtirildi, yangi binolar qurildi, ilm-fan va madaniyat rivojlandi.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda, balki bunyodkor sifatida ham tarixda nom qoldirdi. U Samarqandni dunyoning eng go‘zal shaharlaridan biriga aylantirdi, me‘morchilik va san‘atni rivojlantirdi, olimlar va shoirlarni qo‘llab-quvvatladi. Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat gullab-yashnadi, bu davr Markaziy Osiyo tarixida “Uyg‘onish davri” sifatida baholandi.

Ushbu eslatma Amir Temurning tavalludi, hayoti, siyosiy faoliyati, harbiy yurishlari, madaniyat va ilm-fanga qo‘shgan hissasi hamda bugungi kunda uning merosi haqida batafsil ma‘lumot beradi. Maqsad — yosh avlodni buyuk ajdodimizning hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, ularning tarixiy xotirasini boyitish va kelajak uchun ibratli saboqlar chiqarishdir.

## Bolalik va yoshlik yillari

Amir Temur shabon oyining yigirma beshida, hijriy yetti yuz oʻttiz oltinchi yilda (09.04.1336), oʻn ikki hayvonli Turk yilligiga koʻra sichqon yilida Kesh shahri yaqinidagi Xoʻja ilgʻor qishlogʻida tugʻilgan<sup>[22]</sup>. Amerikalik tarixchi Beatrice Forbes Manz Temurbekning tugʻilgan yilini oʻn toʻrtinchi yuz yillikning yigirmanchi yillariga toʻgʻri kelishi kabi qarashlarini oldinga surib keladi. Bunga sabab qilib Temurbekning 1336-yilda tugʻilganligi toʻgʻrisidagi yozuvlar uning davridan keyin yozilganini va uning davriga tegishli bir nechta manbalardagi voqealarda Temurbekning yoshi uning 1320-yillar oxirida tugʻilganini koʻrsatishini aytadi<sup>[23][24]</sup>. Biroq birorta tarix kitoblarida Temurbekning tugʻilgan yili 1336-yil emas, balki boshqa yil ekanligi toʻgʻrisida belgi umuman uchramaydi.

Temurning yoshligi Keshda kechadi. Otasi Taragʻaybek oʻz chogʻining odatlariga koʻra Temurbekka ot minish, ov qilish, yoydan oʻq otishni oʻrgatuvchilarni tayin qiladi. 18-20 yoshlarida tulporlarni yaxshi ajrata oladigan epchil otliq va qoʻrqmas bahodir boʻlib ulgʻayadi. Temurbek oʻzi toʻgʻrisida kitobida 21 yoshga toʻlganida otasining hosili yaxshi boʻlganini, qoramol va yilqilar koʻp bolalaganini, oʻzi ularni 10 tadan qilib ishchilariga boʻlib berganini yozadi. Amir Temur tabiatan ogʻir, bosiq, teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson boʻlgan. Shu tufayli oʻspirinlik chogʻlaridayoq atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli doʻstlarni jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi doʻstlari va maktabdoshlari (Abbos bahodur, Jahonshohbek, Qimori inoq, Sulaymonshohbek, Idiku Temur, Sayfuddinbek, Hindushoh, Qarkara va boshqalar) toʻplanishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar boʻlishib va harbiy guruhga birlashib, harbiy boʻlinma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qoʻshinida lashkarboshilik darajasigacha koʻtarilgan.

Otasi Amir Taragʻay (oʻrta chogʻ turkchasida Taragʻay – qoraquyruq qushi) barlos qabilasining beklaridan biri va qabilaning asosiy 5 ta urugʻidan birining yetakchisi edi<sup>[25][26][27][28][29]</sup>. Taragʻaybek Chigʻatoy ulusining taniqli beklaridan biri boʻlib, Kesh viloyatida amirlik qilgan. Amir Taragʻay yillik Ili daryosi boʻyida Xon tomonidan chaqiriladigan yurt beklarining qurultoyiga chaqirilgan va bunday yigʻinlarda qoldirmasdan qatnashgan. Butga topinuvchi oʻlaroq tugʻilgan Taragʻaybek Chigʻatoy ulusi orasida birinchilardan boʻlib islom dinini qabul qilgan. Otasi Barqul Noʻyondek Taragʻaybek harbiy va siyosat ishlariga qiziqmagan va asosan islom dinini oʻrganish bilan umrini kechirgan. Temurbek tez-tez qabrini ziyorat qiladigan va keyinchalik qabri ustiga maqbara (1373–1374) qurdirgan Shamsiddin Kulol Taragʻaybekning piri boʻlgan. Sharofiddin Ali Yazdiy taʼkidlashiga koʻra:

"ulamo va sulaho va muttaqiyilarga mushfiq va mehribon erdi va bularning majlisiga borur erdi..."

Onasi Takina xotun (Takina Mohibegim) buxorolik. Zafarnomada yolgʻiz otigina keltirilgan. 1403-yilda Temurbek Jenoa, Fransiya, Angliya qirollariga elchi qilib yuborgan, Sultoniya bosh rohibi (arxiyepiskop) Johannes de Galonifontibus Takina Xotunning oddiy oiladan ekanini yozadi. Temur saroyida yozilgan, biroq yozuvchisi aniq bilinmagan *Muyizz al-Ansab* (tarjimasi: *Izzatli nasablar*) asarida Takina Xotun barlos qabilasi bilan chegaradosh boʻlgan Chigʻatoy ulusining Yasaʼur qabilasidan ekanligi yoziladi<sup>[31]</sup>. Arab tarixchisi Ibn Xaldun esa 1401-yilda Temur bilan shaxsan uchrashganini va Temurning oʻzi onasi qadimgi Eron hukmdori Manuchehr avlodidan ekanini aytganini yozib qoldirgan<sup>[32]</sup>. Ahmad ibn Arabshoh oʻzining *Ajoyib ul-maqdur fi navaib (fi axbor) at-Taymur* (arabcha: عجائب المقدر في نواب – tarjimasi: *Temurdagi taqdirning ajoyibotlar*) asarida uning Chingizxonning naslidan ekanligini yozadi<sup>[33]</sup>. XVIII asrda yozilgan Amir Temur kimligi toʻgʻrisidagi kitoblarda Takina Xotun Buxoro „Sadr ash-Sharia“ (Shariat qonunlarini izohlovchi)si Ubaydullo Mahbubiyning qizi ekanligi qayd qilingan<sup>[34]</sup>. Oʻzbek tarixchisi Turgʻun Fayziyev oʻzining „Temuriylar shajarasi“ (Toshkent, 1995) kitobida Temurbekning onasi toʻgʻrisida „Jangnomayi Amir Temur Koʻragon“

kitobiga tayangan holda Buxoro ulamolarining eng ulug‘i „Sadr ash-Sharia“ning qizi ekanligini keltiradi.



### Shohi Zinda, Samarqand

Temurbekning opasi Qutlug‘ Turkon og‘o va singlisi Shirinbeka og‘o edi. Ular Temurbekdan oldin o‘lishgan va Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasidagi maqbaralarda ko‘milishgan. Shuningdek, Mu‘izz al-ansab manbasiga ko‘ra, Temurning yana uch nafar ukasi — Juki, Alim Shayx va Suyurg‘atmish ham bo‘lgan.

Temur 1362-yilda Seyistonga birinchi kelishi chog‘ida o‘ng oyog‘idan va o‘ng qo‘lidan Mamaqtuv (Yazdli Sharafiddin, Zafarnoma 19a,19b, 89b) tomonidan yoydan otilgan o‘qdan yaralangan. Temurbek Islom dini bilimlariga tayanib yurishlar qiladi va o‘zini „Islom qilichi“ sifatida taniltiradi<sup>[3]</sup>. Islom dinini yoyish yo‘lida qilgan yurishlaridan keyin Abu Fotih otini oladi. 1402-yilda Izmir qal‘a qamalida katolik gospitaliyerlarini, Gurjiston (Gruziya) nasroniylarini bir necha bor yutishi ortidan Abu G‘oziy otini oladi. Turklar o‘z odatiga ko‘ra o‘z yetakchilarini Bek deb atashardi. Shu yuzdan Temurbek ham Bek otini oladi. 1404-yilda Samarqandda bo‘lgan Kastiliya (ispaniya) elchisi Rui Gonzales de Klavixo o‘zining sayohat qo‘lyozma kundaligida ham Temurbek otini qo‘llaydi.

Temurbekning turk yoki mo‘g‘ul ekanligi tortishuvli hisoblanadi. Rui Gonsales de Klavixo Temurbekning kelib chiqishini Chig‘atoy ulusining ellariga bog‘lasa, nabirasi Muhammad Tarag‘ay (Ulug‘bek nomi bilan tanilgan) „Tarix-i arba ulus“ kitobida Shajarat al-atrak (Turklar kelib chiqishi)ni ko‘rsatadi va unga ko‘ra Temurbek va ota-bobolari Yofas o‘g‘li Turkning bolalari ekanligini aytadi. Turk otli kishi esa butun turklarning otasi ekanligi ko‘rsatiladi. Richard Bulliet Temurning qabilasi barloslarning mo‘g‘ullarga aloqasi yo‘qligini ta’kidlagan<sup>[35]</sup>. Rene Grousset o‘zining *L’empire des steppes, Atilla, Gengis-Khan, Tamerlan* asarida Temurning kelib chiqishi Chingizxonga bog‘langanligini, biroq uni mo‘g‘ullar bilan umuman birligi yo‘qligini va turk ekanligini yozadi<sup>[36]</sup>. Temur tarixi bo‘yicha 3 salmoqli kitobdan biri sanalgan Ahmad ibn Arabshohning "*Ajoyib ul-maqdur fi navaib at-Taymur*" kitobida Temurbekni barlos turki ekanligini yoziladi:

"Turklarda ham Arablarda bo‘lganidek qabilalar va urug‘lar bordir va har bir qabilada vazir (qabilaboshi) bordir. U o‘z qabilasi ichida yashash tarzi bo‘yicha maslahat beradigan yorituvchi chiroqdir. Ulardan birinchisi Arlot, ikkinchisi Jaloyir, uchinchisi Qavchin, to‘rtinchisi Barlosdir. Temur(bek) to‘rtichisidan chiqqandir."<sup>[37][38][39]</sup>.

Yusuf Husayn o‘zining *Two studies in early Mughal history* asarida Temurbek turk ekanligidan g‘ururlanar, o‘z o‘rnida o‘ziga qarata aytilgan mo‘g‘ul so‘zini yomon ko‘rardi deb ta’kidlagan<sup>[40]</sup>. O‘zbek tarix yozuvchilari Temurbekning so‘zsiz turk bo‘lganligini aytib keladi. Temurbekning o‘zi yozganligi aytiladigan Mulfazot-i Temuriy (Temur qissalari yoki Temur tuzuklari) kitobida Tarag‘aybek o‘g‘li bilan so‘zlashganda turk kelib chiqishli ekanligini aytgani yoziladi.

Temur yoshligidan jasoratli, kuchli va zakovatli bola sifatida tanildi. U ot choptirish, qilichbozlik, ovchilik kabi mashg'ulotlarda o'z tengdoshlaridan ajralib turardi. Bu mashg'ulotlar uning keyinchalik buyuk sarkarda sifatida shakllanishiga zamin yaratdi.

O'sha davrda Movarounnahr siyosiy jihatdan parokanda bo'lib, turli amirlar hokimiyat uchun kurash olib borardi. Temur ana shu muhitda ulg'ayib, yoshligidan siyosiy va harbiy hayotga qiziqdi. U o'zining qat'iyati, sabr-toqati va zakovati bilan tez orada mahalliy hukmdorlar e'tiborini qozondi.

Temurning yoshlik davrida u ko'plab janglarda qatnashib, harbiy tajriba orttirdi. Bu tajribalar unga keyinchalik o'z lashkarini tuzish va Movarounnahrda hokimiyat uchun kurashga kirishish imkonini berdi.

Yoshlik yillarida Temur o'zining adolatparvarligi va xalq dardiga befarq bo'lmaganligi bilan ham ajralib turardi. U oddiy xalqning muammolarini tushunishga harakat qilgan, ularning ishonchini qozongan. Bu fazilatlar keyinchalik uning davlat boshqaruvida asosiy tamoyillardan biriga aylandi.

### **Siyosiy faoliyati**

Taxminan 1360-yilga kelib, Temur asosan mintaqadagi turkiy qabila vakillaridan iborat qo'shini bilan harbiy yo'l boshchi sifatida shuhrat qozondi. Temur Movarounnahrda harbiy yurishlarda ishtirok etdi. Volga Bulg'oriyasini ag'dargan va vayron qilgan Qozog'on bilan ham g'oyaviy, ham oilaviy rishtalar orqali ittifoq tuzib, ming nafar suvoriy boshchiligida Xurosonga bostirib kirdi. Bu Temur boshqargan ikkinchi harbiy yurish bo'lib, uning muvaffaqiyati keyingi amaliyotlarga, jumladan, Xorazm va Urganchni bo'ysundirishga yo'l ochdi.

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan. Ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Xondamirning yozishicha, otasi amir Tarag'oy Amir Temurni avval (1355) amir Joku barlosning qizi Nurmushk og'oga, so'ngra o'sha yili (1355) Qazag'onning nabirasi va amir Husaynning singlisi O'ljay Turkon og'oga uylantiradi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashadilar. Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakati XIV asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi. XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro kurashi kuchayib, amir Qazag'on o'ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og'ir tanglik sodir bo'ldi. Xondamirning Habib us-siyar kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, ulus o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan.

1358-yil Amir Qozag'onbekning o'limidan so'ng Movarounnahrda boshlangan bosh-boshdoqlik chog'ida Temurbek amakisi Hoji Barlos bilan Kesh yerlarini boshqarardi. 1360-yil yanvarda Jeta (Mo'g'uliston) xoni Tug'luq Temur Movarounnahrda yurish qiladi.

Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi – Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrda og'ir siyosiy vaziyatdan foydalanib, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Jeta xonlaridan Tug'luq Temur va uning vorisi Ilyosxoja 1360—1361 va 1365-yillarda Movarounnahrda bir necha bor bostirib kiradilar. Mo'g'ul xonlarining bosqinchilik yurishlari va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi.

Biroq, Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo'lib, mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushman tarafiga o'tadi, ikkinchi qismi esa el-yurtini tark etib, o'zga mamlakatlardan boshpana izlaydilar. Amir Temurning amakisi, Kesh viloyatining hukmdori amir Hoji barlos Xurosonga qochadi.

Mana shunday og‘ir pallada siyosat maydoniga Amir Temur kiradi. Mo‘g‘ullarga qarshi turish uchun kuchlar nisbati teng emasligini hisobga olgan 24 yoshli Amir Temur 1360-yilning boshida Tug‘luq Temur tomonidan Keshga yuborilgan beklar bilan kelishadi. Sharoit taqozosi bilan xon xizmatiga o‘tib, uning yorlig‘i bilan o‘z viloyatining durug‘asi etib tayin qilinadi. Shubhasiz, bu noilojlikdan qo‘yilgan siyosiy hamda strategik qadam bo‘lib, bu bilan Amir Temur mo‘g‘ullarning navbatdagi talon-tarojining oldini olgan, mamlakat va xalqni falokatdan qutqargan edi. Tug‘luq Temur orqasiga qaytib ketadi. Tug‘luq Temur bilan kelishgan Temurbekka Keshdan Sirdaryogacha bo‘lgan yerlar topshiriladi. Xon hali Sirdaryodan o‘tib ulgurmay, Ilyosxo‘ja amir Bekchik va boshqa yaqin amirlar bilan til birlashtirib, Temurni davlat ishlaridan chetlashtirish, imkon tug‘ilganda esa uni yo‘q qilishni rejalashtirdi. Bu fitnalar tobora kuchayib, xavfli tus oldi. Natijada Temur mo‘g‘ullardan ajralib, ularning dushmani – amir Husayn (amir Qozog‘onning nabirasi) tomoniga o‘tdi.

Bir muddat Temur va Husayn kichik qo‘shin bilan sarguzashtli hayot kechirib, Xorazm tomon yo‘l oldilar. U yerda Xiva yaqinidagi jangda hukmdor Tavakkal Qo‘ng‘irot tomonidan mag‘lubiyatga uchrab, qolgan askarlari bilan sahro ichkarisiga chekinishga majbur bo‘ldilar. Keyinchalik Mahon hududiga qarashli Mahmudiy qishlog‘i yaqinida ular Alibek Janiqurbon odamlari tomonidan asirga olindi va 62 kun asirlikda saqlandi. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Alibek ularni eronlik savdogarlarga sotmoqchi bo‘lgan, biroq bu davrda Mahon orqali karvon o‘tmagan. Natijada Temur va Husayn Alibekning akasi amir Muhammadbek tomonidan ozod qilingan.

1362-yil kuzida Seyistonda Malik Outbiddin dushmanlariga qarshi bo‘lgan to‘qnashuvda Temur o‘ng qo‘lining ikki barmog‘idan ayrildi va o‘ng oyog‘idan og‘ir yaralandi. Shu sababli u umrining oxirigacha oqsoq bo‘lib qolgan.

1364-yilgacha Temur va Husayn amirlar sifatida Amudaryoning janubiy sohilidagi Kahmard, Dargaz, Arsif va Balx hududlarida yashab, mo‘g‘ullarga qarshi partizan urushi olib bordilar.

1364-yilda mo‘g‘ullar Movarounnahrni tark etishga majbur bo‘ldilar. Movarounnahrqa qaytgan Temur va Husayn Chig‘atoy sulolasidan bo‘lgan Kobulshohni taxtga o‘tqazdilar.

1365-yil 22-may kuni tongda Chinoz yaqinida Chirchiq daryosi bo‘yida Temur va Husayn qo‘shinlari bilan Ilyosxo‘ja qo‘shinlari o‘rtasida tarixga „Loy jangi“ nomi bilan kirgan qonli jang bo‘lib o‘tdi. Ilyosxo‘ja qo‘shini son jihatdan ustun edi. Jang vaqtida kuchli yomg‘ir yog‘ib, ko‘rish qiyinlashdi, otlar esa loyga botib qoldi. Shunga qaramay, Temur qo‘shinlari o‘z qanotida ustunlikka erisha boshladi. Hal qiluvchi paytda Temur Husayndan yordam so‘radi, biroq Husayn yordam bermay, aksincha chekinib ketdi. Bu holat jang taqdirini hal qildi. Natijada Temur va Husayn qo‘shinlari Sirdaryoning narigi tomoniga chekinishga majbur bo‘ldilar.

Bu orada Ilyosxo‘ja qo‘shini Samarqanddan xalq qo‘zg‘oloni natijasida haydab chiqarildi. Bu qo‘zg‘olonga madrasa mudarrisi Mavlonozoda, hunarmand Abu Bakr Kalaviy va mergan Mirzo Xurdaki Buxoriy boshchilik qildilar. Shaharda xalq hokimiyati o‘rnatildi. Boy tabaqalarning mol-mulki musodara qilindi va ular yordam so‘rab Temur va Husaynga murojaat qildilar.

1366-yil bahorida Temur va Husayn Samarqandga yurish qilib, sarbadorlar qo‘zg‘olonini bostirdilar. Qo‘zg‘olon rahbarlari qatl etildi, biroq Temurning buyrug‘i bilan xalq orasida katta obro‘ga ega bo‘lgan qo‘zg‘olon yetakchilaridan biri – Mavlonozoda tirik qoldirildi.

1366-yil Amir Husayn va Amir Temur dushmanga aylanishadi. Amir Temur Amir Husayn tomon qo‘shin tortadi. Temurbek Qarshiga qarab yuradi. Qarshi qamalida Musabekni 12000 otlig‘ini 243 kishi bilan yengadi. 1367-yil Moxon yaqinidagi Bermasda Bekishohga qarshi yurish qiladi. Temur dushmani yengadi.

Amir Temurning siyosiy faoliyati XIV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va butun Markaziy Osiyo tarixida tub burilish yasagan davrdir. U dastlab mahalliy hukmdorlar qo‘shinida xizmat qilib, janglarda qatnashib, o‘zining jasorati va harbiy mahorati bilan tanildi. Bu davrda Temur o‘zining siyosiy qarashlarini shakllantirib, hokimiyat uchun kurashning murakkab yo‘llarini o‘rgandi.

### **Hokimiyatga intilish**

Movarounnahrda o‘sha davrda siyosiy parokandalik hukm surar, turli amirlar va beklar o‘zaro kurash olib borar edi. Temur ana shu kurashlarda faol ishtirok etib, asta-sekin o‘z lashkarini tuzdi. Uning qo‘shini intizomli, tartibli va kuchli bo‘lib, tez orada boshqa lashkarlardan ajralib chiqdi. Temur o‘zining harbiy iste’dodi va siyosiy zakovati bilan xalq orasida obro‘ qozondi.

### **Samarqandda taxtga chiqishi**

1370-yilda Temur Samarqandda taxtga chiqib, o‘zini “Amir” deb e‘lon qildi. Bu voqea Movarounnahr tarixida yangi davrni boshlab berdi. Temur hokimiyatni qo‘lga olgach, davlat boshqaruvida adolat va tartibni ustuvor qo‘ydi. U o‘zining “Temur tuzuklari” orqali davlat boshqaruvi va harbiy tartibni mustahkamladi. Bu tuzuklarda davlat arboblari va lashkarboshilarning vazifalari, xalq bilan munosabatlar, soliqlar va tartib-qoidalar aniq belgilab qo‘yilgan edi.



### **Davlat boshqaruvi**

Temur davlat boshqaruvida qat’iyatli va adolatli siyosat yuritdi. U hokimiyatni markazlashtirdi, soliqlarni tartibga soldi, savdo yo‘llarini xavfsiz qildi. Temur xalqning turmush darajasini yaxshilashga harakat qildi, dehqonchilik va hunarmandchilikni rivojlantirdi. Shaharlar obodonlashtirildi, yangi binolar qurildi, savdo va madaniyat markazlari barpo etildi.

Sohibqiron ajdodimiz, ilgarigi davrlardan farqli holda, jamiyatdagi barcha tabaqalarning haq-huquqlari va manfaatlarini inobatga olib, ularning hayoti uchun zarur ijtimoiy zaminni vujudga keltirgan. Har bir toifaning haq-huquqlari, burch va majburiyatlari o‘ziga xos qonun bilan kafolatlab qo‘yilgan.

Amir Temurning ulkan xizmatlaridan yana biri – davlat boshqaruvini tashkil qilish bilan bog‘liq. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijroiya tarmoqlariga bo‘linishiga asoslangan mazkur tizimni joriy etishda Amir Temur ko‘r-ko‘rona emas, balki o‘zi yashab turgan voqelikni nazarda tutgan holda ish yuritgan.

Taniqli tarixchi olim **Azamat Z**ning fikricha, bu tizimda saltanat darajasiga ko‘tarilgan davlatning jo‘g‘rofiy hududlari doirasida yashovchi xalqlarning turmush tarzi, an‘analari, ma‘naviy-ruhiy ehtiyojlari ham inobatga olingan. Davlat boshqaruvi tizimiga Amir Temur olib kirgan yangilikning mohiyati ham aslida shu bilan belgilanadi.

Amir Temur oliy davlat idorasi maqomida qurultoyini belgilagan. bugungi tushunchadagi kongress, assambleya, majlis, s'ezd kabilarga to'g'ri keladigan ushbu siyosiy institut boshqaruv mahkamasi va davlat ahamiyatiga molik bo'lgan eng asosiy masalalarni hal etib, unda saltanatdagi barcha yirik siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy soha namoyandalari ishtirok etgan.

Davlatni mustahkamlash, jamiyatni rivojlantirish borasida ijro etuvchi tizim vazirliklarning o'rni muhim bo'lgan Amir Temur davrida siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yib, ulardan jamiyat manfaati yo'lida foydalanish uchun qat'iy intizomga asoslangan, talabchan ijroiya mexanizmi zarur edi. Sohibqiron ana shunday tizimni yarata olgan.

Amir Temur saltanatining ijro etuvchi tizimidagi sakkiz vazirlik va yana bir necha muassasalar moliya, soliqlar, daromad va xarajatlar, mulkchilik, yetishtiriladigan hosil, chorva, yaylovlar ahvoli, obodonchilik, xabar va pochta, harbiy va adliya sohalarini boshqargan. Masalan, harbiy ishlar vazirligi harbiylarga maosh berish, ularga tegishli mulklarni boshqarish, qurol-aslaha ta'minoti, harbiy mashqlarni tashkil etish kabi vazifalar bilan bir qatorda, iste'foga chiqqan, urushda yarador bo'lib, mehnat qobiliyatini yo'qotganlarga nafaqa belgilash kabi yumushlarni ham bajargan.

### **Diplomatik siyosati**

Temur faqat harbiy kuch bilan emas, balki diplomatik siyosat orqali ham o'z saltanatini mustahkamladi. U ko'plab davlatlar bilan aloqalar o'rnatdi, elchilar yubordi, savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirdi. Temur diplomatiyani harbiy kuch bilan uyg'unlashtirib, o'z davlati uchun qulay sharoit yaratdi.

### **Siyosiy ittifoqlar**

Temur o'z davrida turli siyosiy ittifoqlar tuzdi. U ba'zi hukmdorlar bilan ittifoq tuzib, ba'zilarini mag'lub etdi. Bu siyosiy ittifoqlar Temurning hokimiyatini mustahkamlashda muhim rol o'ynadi. Temur o'zining siyosiy zakovati bilan raqiblarini yengib, o'z davlati uchun qudratli asos yaratdi.

### **Harbiy yurishlari**

Amir Temur o'z davrining eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida tarixda nom qoldirdi. Uning harbiy yurishlari nafaqat Movarounnahr, balki butun Osiyo va Yevropa tarixiga ta'sir ko'rsatdi. Temurning yurishlari keng hududlarni qamrab olib, saltanatining chegaralarini kengaytirdi. Bu bobda uning asosiy yurishlari, ularning sabablari va oqibatlari batafsil yoritiladi.

#### **Hind yurishi (1398–1399)**

Temurning eng mashhur yurishlaridan biri Hindistonga bo'lgan yurishidir. O'sha davrda Hindiston siyosiy jihatdan zaiflashgan, Dehli sultonligi ichki nizolar girdobida edi. Temur bu vaziyatdan foydalanib, Hindistonga yurish qildi.

- **Sabablar:** Hindistonning boyligi, savdo yo'llarini nazorat qilish, siyosiy zaiflikdan foydalanish.
- **Natija:** Temur Dehlini egalladi, katta o'lja qo'lga kiritdi. Hind yurishi Temurning nomini butun Osiyoga mashhur qildi.
- **Oqibatlar:** Hindiston iqtisodiy va siyosiy jihatdan zaiflashdi, Temur saltanati esa yanada boyidi.
- **Amir Temurning Hindistonga harbiy yurishi** — 1398—1399-yillarda Amir Temur tomonidan Hindistonga qilingan harbiy yurish. O'sha davrda Hindistonda islom

diniga e'tiqod qiladiigan davlat Dehli sultonligi mavjud bo'lgan bo'lsada, harbiy yurishning asosiy maqsadi g'azavot hisoblangan.

- **Tarixi**

- Yurish yo'nalishi

Harbiy yurish 1398-yil aprel oyida boshlanadi. Pirmuhammad Mirzo qo'shini (taxminan 30 ming otlig) Sulaymon tog'lari orqali Mo'ltonga kelib, uni 6 oy davomida qamal qiladi. Amir Temur qo'shinlari Termiz orqali Samangan tomon harakatlana boshladilar. Bag'lon viloyatidagi Hindukush tog'laridan o'tgan Amir Temur qo'shini eski Kofiriston (hozirgi Nuriston) aholisi bilan bir necha oy jang qiladi. 1398-yil avgust oyida Amir Temur Andarob orqali Kobulga keladi va shu yerda boshqa davlatlarning elchilarini qabul qiladi. Avgust oyining o'rtasida Shohrux Mirzoni Hirotga va Mirzo Ulug'bek bilan Saroymulxonimni Samarqandga qaytarib, o'zi 2-avgust kuni Kobuldan chiqib, Hindiston sari yo'l oladi. Sentabr oyida Amir Temur qo'shini Hind daryosini kesib o'tadi va 6-oktabrda Chenab daryosining Jhelum daryosi bilan qo'shilish nuqtasiga yetib keladi. So'ngra oktabr oyida qo'shin Ravi va Beas daryolarini kechib o'tadi. Shundan so'ng Amir Temur va uning nabirasi Pirmuhammad Mirzo qo'shinlari yagona qo'shinga birlashadilar (daryodan kechib o'tish paytida Pirmuhammad Mirzo qo'shini ko'plab otlaridan ayriladi)<sup>[1]</sup>. Oktabr oyi oxirida qo'shin Sahivalni, noyabr oyi o'rtalarida Sirsani, kuzning oxirida esa Kaithalni bosib oladi. Dekabr oyida gabrlar va moniylik diniga e'tiqod qiluvchilar yashaydigan Panipat shahrini egallab oladilar. So'ngra Dehli yaqinida Amir Temur qo'shini 30 ming kishilik qo'shin to'plagan Dehli sultonligining lashkarboshisi Malluxonning qarshiligiga duch kelishadi.

1398-yil 10-dekabrda Malluxon qo'mondonligidagi qo'shin jangda mag'lubiyatga uchraydi<sup>[2]</sup>. Oradan bir hafta o'tgach, 1398-yil 17-dekabrda Dehlidan taxminan 100 km shimolida joylashgan Panipat yalangligida Amir Temur qo'shini (92 ming kishi) bilan Dehli sultoni Sulton Mahmudxon qo'shini (10 ming otlig, 20 ming piyoda askar va 120 jangovar fil) o'rtasida sodir bo'lgan shiddatli jang yuz beradi. Qo'shin safi oldida harakatlanuvchi fillarning hartumlari bir-biriga bog'langan, fillar ustiga kajavalar o'rnatilgan, ularda bir necha o'qchilar joylashtirilgan. Fillar qatori yonidan to'p otuvchilar — ra'dandozlar o'rin olgan. Qo'shinlar o'zaro yaqinlashgan chog'da Amir Temur o'z qarorgohi Baholi do'ngligidan atrofni kuzata boshlaydi. Jang do'mbira va nog'oralar ovozi, karnay-surnay sadosi ostida boshlanadi. Amir Temur askarlari fillarga nayza sanchadi, kajavada joylashgan merganlarni o'qqa tutadi. Yarador bo'lgan fillar filbonlarni uloqtirib, orqaga qochgan, bu bilan hind qo'shiniga katta talafot yetkazgan. Biroq, shunga qaramay sulton qo'shini qarshilik ko'rsatishni davom ettirgan. Amir Temur qo'shini sulton askarlarini qurshovga olib, fillarni o'lja qilgan. Sulton Mahmudxon ozgina otliq guruhi bilan jang maydonini tark etib, lashkarboshisi Malluxon bilan Dehliga yashiringan, kechasi esa ular shahardan qochishgan. 18-dekabr Dehlining buzurglari, sayyidlari, qozilari, a'yonlari kelib Amir Temurdan shahar aholisi uchun omonlik tilaganlar.

Biroq yurish shu bilan tugamaydi. 1399-yil 7-yanvarda Amir Temur gabrlar yashaydigan Meerut shahrini egallab oladi. Sharqqa qarab yurishni davom ettirgan Amir Temur qo'shini Gang daryosiga yetib keladi va uning qirg'og'ida gabrlarni yo'q qiladi. Fevral oyida Amir Temur qo'shini Jamna daryosidan kechib o'tadi.

Amir Temurning Dehliga qilgan harbiy yurishida taxminan 100 mingdan 200 minggacha odam halok bo'lgan<sup>[6][7]</sup>. Harbiy yurishdan so'ng Amir Temur Samarqandga katta boylik va mohir humarmandlar bilan qaytib keladi

## Eron va Kavkaz yurishlari

Temur Eron va Kavkaz hududlariga ham yurishlar uyushtirdi. Bu yurishlar orqali u o'z saltanatini kengaytirdi va strategik hududlarni nazorat ostiga oldi.

- **Eron yurishi:** Temur Eron shaharlarini egallab, ularni o‘z saltanatiga qo‘shdi.
- **Kavkaz yurishi:** Kavkazdagi hukmdorlarni mag‘lub etib, bu hududni ham o‘z nazoratiga oldi.
- **Natija:** Temur saltanati kengayib, savdo yo‘llari ustidan nazorat kuchaydi.

Oltin O‘rda bilan to‘qnashuvlar

Temur Oltin O‘rda hukmdorlari bilan ham to‘qnashdi. Bu to‘qnashuvlar Markaziy Osiyo va Rossiya hududlarida siyosiy vaziyatni o‘zgartirdi.

- **Sabablar:** Savdo yo‘llari ustidan nazorat, siyosiy raqobat.
- **Natija:** Temur Oltin O‘rda hukmdorlarini mag‘lub etdi, ularning kuchini zaiflashtirdi.
- **Oqibatlar:** Oltin O‘rda siyosiy jihatdan zaiflashdi, Temur saltanati esa mustahkamlandi.

Usmoniylar bilan jang (1402)

Temurning eng mashhur janglaridan biri Usmoniylar bilan bo‘lgan Ankara jangidir.

- **Sabablar:** Usmoniylarning kuchayishi, siyosiy raqobat.
- **Natija:** Temur Usmoniy sultoni Boyazid I ni mag‘lub etdi va asirga oldi. Bu g‘alaba Temurning nomini Yevropada ham mashhur qildi.
- **Oqibatlar:** Usmoniylar vaqtincha zaiflashdi, Temur saltanati esa yanada kuchaydi.

Harbiy strategiya va qo‘shin tuzilishi

Temur o‘z qo‘shinini intizomli va tartibli qilib tuzdi. Har bir lashkarboshining vazifasi aniq belgilangan edi. Temur janglarda strategik fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va qo‘shinini samarali boshqarish qobiliyati bilan ajralib turardi.

- **Qo‘shin tuzilishi:** piyoda askarlar, otliq lashkarlar, maxsus jangchilar.
- **Strategiya:** tezkor hujum, dushmani chalg‘itish, kuchlarni to‘g‘ri taqsimlash.
- **Natija:** Temur qo‘shini ko‘plab janglarda g‘alaba qozondi.

Harbiy yurishlarning iqtisodiy va siyosiy oqibatlari

Temurning yurishlari saltanatining iqtisodiy va siyosiy kuchini oshirdi. U katta o‘lja qo‘lga kiritdi, savdo yo‘llarini nazorat qildi, shaharlarni obodonlashtirdi. Temurning yurishlari jahon tarixida katta ta‘sir ko‘rsatdi, ko‘plab davlatlarning siyosiy vaziyatini o‘zgartirdi.

Madaniyat va ilm-fan

Amir Temur o‘z davrida nafaqat buyuk sarkarda, balki madaniyat va ilm-fan homiysi sifatida ham tarixda nom qoldirdi. U o‘z saltanatini mustahkamlashda faqat harbiy kuchga tayanib qolmadi, balki ilm, san‘at va me‘morchilikni rivojlantirishga katta e‘tibor berdi. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida “Uyg‘onish davri” sifatida baholanadi.

Samarqand – dunyoning eng go‘zal shaharlaridan biri

Temur Samarqandni o‘z saltanatining poytaxti sifatida tanladi. U bu shaharni dunyoning eng go‘zal va obodon shahariga aylantirishni maqsad qildi. Samarqandda ko‘plab me‘moriy obidalar, madrasalar, masjidlar, saroylar qurildi. Shahar ilm-fan, madaniyat va savdo markaziga aylandi.

- **Registon majmuasi** – Temuriylar davrida qurilgan eng mashhur me'moriy yodgorliklardan biri. Bu majmua keyinchalik Ulug'bek, Sherdor va Tillakori madrasalari bilan to'ldirildi.
- **Bibixonim masjidi** – Temurning xotini Bibixonim nomiga qurilgan ulkan masjid. Bu masjid o'z davrida dunyodagi eng yirik diniy inshootlardan biri bo'lgan.
- **Gur-Emir maqbarasi** – Temurning dafn etilgan joyi. Bu maqbara o'zining nafis me'morchiligi bilan mashhur.

### Me'morchilik va san'at

Temur me'morchilikni rivojlantirishga katta e'tibor berdi. U Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarni obodonlashtirdi. Me'morlar, naqqoshlar, ustalar saltanatning turli hududlaridan Samarqandga yig'ildi.


- **Shahrisabzdagi Oqsaroy** – Temurning shaxsiy qarorgohi sifatida qurilgan ulkan saroy.
- **Naqqoshlik va bezak san'ati** – Temuriylar davrida binolar rang-barang naqqoshlar, koshinlar bilan bezatildi.
- **Miniatyura san'ati** – Temuriylar davrida kitob bezagi va miniatyura san'ati rivojlandi.

### Temuriylar bunyod etgan me'moriy obidalar



Musulmon me'morligidagi eng yaxshi davr Amir Temur va uning avlodlari nomi bilan bogliq. Temuriylar davrida qurilish ishlari, me'morchilik misli ko'rilmagan darajada rivojlangan. Amir Temur buyuk imoratlar, masjid va maqbaralar, ulkan bog'u-rog'lar, suv inshootlari barpo etganligi bilan ham mashhur. Temur va uning avlodlari davrida Samarqand, Toshkent, Buxoro, Shaxrisabz, Qarshi, Turkiston, Hirot, Mashhad, Nishopur, Qobul va boshqa shaharlarda buyuk yaratuvchilik ishlari olib borilgandi. Albatta, Amir Temur birinchi navbatda o'z poytaxti Samarqandni dunyoning eng go'zal va obod, ko'rkam shahriga aylantirishni istar edi. Uni davrida Samarqandning dovrug'i doston bo'ladi. Shaharning to'rt tomonida to'rtta darvozasi bo'lgan. Samarqandning o'zida sohibqiron hukmronligi davrida 80 ga yaqin hammom, katta 5 ta bozor bo'lgan. Xukmdor poytaxti atrofini bog'larga aylantirgan. Bundan tashqari Shahrisabzdagi "Oq saroy" o'z davrining eng muhtasham, betakror, murakkab me'moriy yechimga ega inshooti bulgan. Oradan bir necha yuz yilliklar o'tgan bo'lsada Amir Temur va Temuriylar bunyod etgan inshootlar o'z mahobati va go'zalligi bilan jahon me'morligining asl durdonalaridan biri bo'lib turibdi.

Quyida Temuriylar tomonidan bunyod etilgan ba'zi inshootlarni e'tiboringizga havola etamiz



Jome masjid (Bibixonim nomi bilan ataluvchi masjid)



(“Shohizinda”—«tirik shoh» ma’nosini beradi).«Shohizinda» ansamblida Temur va temuriylar qurdirgan maqbaralarning soni 20 dan oshadi.



«Guri Amir Maqbarasi» Sohibqiron shu yerga dafn etilgan. Ana shundan sung ushbu obida temuriylar sulolasining xilxonasiga aylanadi. Unda Amir Temurdan tashqari sohibqironning o‘g‘illari Umarshayh Shoxruh va Mironshoh, nabirasi Mirzo Ulug‘bek va Amir Temurning piri Sayyid Barakaning ham sag‘analari bor.

### **Ilm-fan va ta‘lim**

Temur olimlar, shoirlar va san‘atkorlarni qo‘llab-quvvatladi. U ilm-fan rivojiga katta e‘tibor berdi. Samarqand ilmiy markazga aylandi, bu yerda ko‘plab olimlar faoliyat yuritdi.

- **Mirzo Ulug‘bek** – Temurning nabirasi, buyuk olim va astronom. U Samarqandda rasadxona qurib, yulduzlar jadvalini tuzdi. Ulug‘bekning ilmiy merosi jahon astronomiyasi tarixida muhim o‘rin tutadi.
- **Shoirlar va adiblar** – Temuriylar davrida adabiyot rivojlandi, ko‘plab shoirlar va adiblar ijod qildi.
- **Madrasalar** – Temur va uning avlodlari ko‘plab madrasalar qurib, ta‘lim tizimini rivojlantirdi.



Amir Temurning Movarounnahr hukmdori deb e‘tirof etilishi bu diyor uchun, xususan, uning poytaxti bo‘lmish Samarqand tarixi uchun yangi sahifa ochib berdi. Amir Temur ilm-fan, ma‘naviyat ahliga alohida e‘tibor va mehribonlik ko‘rsatib, jamiyatning madaniy hayotida ulardan foydalanishga intilar edi. Tarixchi ibn Arabshoh yozganidek, “Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o‘ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to‘la izzat-hurmat ko‘rsatib ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko‘rardi. Ularning har birini o‘z martabasiga qo‘yib, izzat-u ikromini izhor qilardi”.

A.Temurning katta xizmatlaridan muhimi shuki, u madaniyat va ilm homiysi sifatida mashhur bo'ldi, o'z saroyiga olim-u fuzalo arboblarni to'pladi. Temur hukmronligi davrida ichki va tashqi savdo kuchaydi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rossiya bilan aloqalarning kuchayishi Temur saltanati iqtisodiy qudratini oshirdi. Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvufga katta e'tibor berildi. Islom dini o'sha davrda asosiy mafkura bo'lib, markazlashgan davlat barpo etishda, iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad va vazifalarni amalga oshirishda nazariy asos bo'lib xizmat qildi. Temur o'z faoliyatida unga tayanib ish ko'rdi.

Temuriylar davrida tasavvuf ta'limoti keng quloqch yoydi. Sohibqiron tasavvuf qoidalaridan mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotishda, turli janjal va nizolarni bartaraf qilishda, haqiqat va adolat o'rnatishda, insonparvarlik g'oyalarini tarqatishda foydalangan. Temuriylardan *Shohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzolar* davlatni boshqarishda, din va tasavvuf qoidalariga amal qilishda, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishda uning an'alarini izchil ravishda davom ettirdilar.

XIV-XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning ko'p sohalarida yuksalish yuz berdi. Jahonga mashhur olimlar, tabiatshunoslar va shoirlar yetishib chiqdi. *Tibbiyot, riyoziyot, handasa, tarix, adabiyot, jug'rofiya, pedagogika, mantiq, falsafa, axloqshunoslik* va boshqalarga e'tibor berildi. Ayniqsa, *badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik* tez rivoj topa boshladi.

Temuriylar davrida bir qator atoqli allomalar: Sa'diddin Taftazoniy (1322-1392), Mir Sayyid Sharif Jurjoniy, jahon ilm-fani taraqqiyotiga katta ulush qo'shgan buyuk falakiyotchi olim va davlat arbobi Muqammad Tarag'ay Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid al-Koshiy, tarixda Ali qushchi nomi bilan mashhur bo'lgan Alouddin Ali ibn Muhammad qushchi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' olim-u mutafakkirlar yetishib chiqdi.

XIV-XV asrlarda mantiq, tabiiy-ilmiiy fanlar, ayniqsa falakiyot, falsafa va axloqshunoslikka katta e'tibor berildi.

Amir Temur Ko'ragoniy olimlarni juda qattiq e'zozlagan. Xususan, Sa'duddin Mas'ud ibn Umar ibn Abdulloh Taftazoniy rahmatullohi alayhini juda ham hurmat qilardi.

(Sa'duddin Taftazoniydir (1322-1392) mantiq ilmining yirik vakillaridan biri. Yoshligidan ilohiyot fanlari, arab tili, nutq san'ati va mantiq bilan shug'ullanadi. Taftazoniy madrasalarda mudarrislik qildi.

Taftazoniy 40 dan ortiq risolalarning muallifidir. Muhimlari: «*Tahzib al-mantiq val-kalom*» («*Mantiq va kalomga saykal berish*»), «*Muhtasar al-maoniy*» (Ritorikaga oid qisqacha ma'nolar), «*Al-irshod al-hodiy*», (Arab tili gramatikasiga oid «*Yo'l boshlovchi rahbar*»), «*Al-maqosid at-tolibin*» («*Falsafa va kalomga oid "Tolibi ilmlarning maqsadlari"*») va boshqalar. Taftazoniy o'tmish olimlarining juda ko'p asarlariga sharhlar ham bitgan.)

Fikrimizning dalili sifatida mashhur olim va tarixchi Ibn Arabshohning quyidagi hikoyasini keltiramiz:

*“Amir Temur o'ta ahamiyatli va foydali ishlaridan biri bo'yicha chopar yubordi. Choparga: Agar yo'lda otga hojat tushib qolsa, kimni ko'rsang ham otini ol, agar o'g'lim Shoxruh bo'lsa ham”, dedi. Chopar u amr qilgan tarafga tezlab jo'nadi. Yo'lda Alloma Taftazoniyga duch keldi. U dam olish uchun bir joyga tushgan, otlari chodirining oldiga bog'langan ekan. Chopar o'sha otlardan birini oldi. Alloma Sa'duddin Taftazoniy chodirdan chiqib, uni ushlab oldi. Otni chopardan qaytarib oldi va uni rosa kaltakladi. Chopar Amir Temurning oldiga qaytib borganida bo'lgan gapni unga aytdi. Shunda Amir Temur qattiq g'azablendi. Ammo birozdan so'ng: “Agar uning o'rnida o'g'lim bo'lganida, uni qatl qilardim. Lekin qaysi joyga borsam, kitoblari u yerga mening qilichimdan oldin kirib borgan odamni qanday qilib qatl qilaman”, dedi”. Mana shundan ko'rinib turibdiki, Amir Temurning huzurida olim-u fuzalolarning darajasi nihoyatda baland bo'lgan.*

Bu davrda yashab, ijod qilgan ajdodlarimiz, musulmon olami boshiga tushgan mislsiz og'ir musibatlardan, xususan, mo'g'ul istibdodlaridan keyin dinimizga, ilmu-ma'rifatga, madaniyatga va insoniyat uchun xizmat qilishga xaris bo'lishgan.

### **Adabiyot va san'atning rivojlanishi**

Temuriylar davrida adabiyot va san'at gullab-yashnadi. Shoirlar, adiblar, musiqachilar ijod qildi. Bu davrda yaratilgan asarlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

- **Alisher Navoiy** – Temuriylar davrining eng buyuk shoirlaridan biri. Uning asarlari o'zbek adabiyotining durdonalari hisoblanadi.

**Musiq va qo'shiqchilik** – Temuriylar davrida musiqa va qo'shiqchilik rivojlandi, yangi asboblari yaratildi. Temuriylar davri — o'zbek xalqi va umuman Markaziy Osiyo tarixida madaniyat va

san'atning yuksalgan, taraqqiyotning yuksak bosqichiga ko'tarilgan davridir. Temuriylar hukmronligi davrida Samarqand, Hirot, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlar Sharq sivilizatsiyasining madaniy, ilmiy va san'at markazlariga aylangan. Ayniqsa, Samarqand "Yer yuzining ziynati" sifatida tanilgan bo'lib, bu yerda Qur'on nusxalari, ilmiy risolalar, tarixiy bitiklar va miniatyura asarlari keng tarqalgan. Me'morchilikda Bibixonim masjidi, Shohi Zinda majmuasi, Go'ri Amir maqbarasi kabi obidalar zamonaviy san'atshunoslikda dunyo miqyosida tan olingan yodgorliklardir. Amir Temur davrida harbiy cholg'u asboblari qatorida to'y-bazmlarda torli, zarbli va puflab chalinadigan musiqa asboblari faol ishlatilgan. Xususan, Samarqandda o'z navbatida turk va turk-mo'g'ul cholg'u asboblari keng tarqalgan. XV asr oxiri va XVI asr boshlarida taniqli sozandalar bu cholg'ularda kuy ijro etishgan. O'sha davr tarixiy manbalarida (Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida) Xitoy lyutnyasi – pipa ham kirib kelgani yozilgan. Bu va boshqa cholg'u asboblari (yatugan, shadirg'u) haqida Abdulqodir Marog'iy o'zining «Maqosid al-alhon» («Navolarning maqsadlari») asarida ham to'xtalib o'tgan.

Olimning e'tirofiga ko'ra, u o'z asarida o'sha davrda mashhur bo'lgan va amaliyotda keng qo'llanilgan (ahlu amal) cholg'u asboblari haqida yozib o'tgan. Marog'iy asboblarni to'rt qismga bo'lgan: inson xalqumi (ovozi), puflab chalinadigan, torli va zarbli cholg'u asboblari. U cholg'ular orasida inson ovozi birinchi o'ringa qo'ygan. Qolganlaridan udni alohida ajratib ko'rsatgan. Marog'iy to'rt torli qadimgi va o'n juft torli bo'lgan «mukammal ud» (udi komil) haqida ham ma'lumot bergan.

### **Temurning madaniyat siyosati**

Temur madaniyatni rivojlantirish orqali o'z saltanatini mustahkamladi. U shaharlarni obodonlashtirdi, ilm-fan va san'atni qo'llab-quvvatladi. Bu siyosat saltanatning iqtisodiy va siyosiy kuchini oshirdi, xalqning turmush darajasini yaxshiladi.

Amir Temur nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan ham tarixda o'chmas iz qoldirgan. Uning hayoti va faoliyati davomida namoyon bo'lgan insoniy sifatlar, adolatparvarligi, qat'iyati, harbiy intizomga e'tibori va diplomatik mohirligi uni o'z davrining eng yirik arboblari bilan biriga aylantirdi.

### **Adolatparvarlik**

Temur o‘z davlati boshqaruvida adolatni eng muhim tamoyil sifatida ko‘rdi. U “Temur tuzuklari”da hokimiyat vakillari xalq oldida mas‘ul bo‘lishi, zolimlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘yilmasligi kerakligini ta‘kidlagan. Temur uchun adolat — davlatning mustahkamligi va xalqning farovonligi garovi edi.

- Har bir viloyat hokimi xalqning muammolarini tinglashga majbur bo‘lgan.
- Soliqlar adolatli taqsimlangan, kambag‘al xalq ortiqcha yuk ostida qolmagan.
- Temur o‘z lashkarida ham adolatni ta‘minlab, jangchilarni teng huquqli ko‘rgan.

#### Qat‘iyat va sabr-toqat

Temur o‘zining qat‘iyati va sabr-toqati bilan ajralib turardi. U murakkab vaziyatlarda ham o‘zini yo‘qotmagan, har bir qarorni chuqur o‘ylab qabul qilgan.

- Harbiy yurishlarda duch kelgan qiyinchiliklarga bardosh bergan.
- Siyosiy raqiblar bilan kurashda qat‘iyatli bo‘lgan.
- Davlat boshqaruvida uzoq muddatli maqsadlarni ko‘zlab ish yuritgan.

#### Harbiy intizom

Temur lashkarida intizomni eng muhim tamoyil sifatida joriy etgan. U jangchilarni tartibli, intizomli va sadoqatli bo‘lishga o‘rgatgan.

- Har bir jangchi o‘z vazifasini aniq bilgan.
- Lashkarda tartib-qoidalar qat‘iy belgilangan.
- Intizomni buzgan jangchilar jazolangan, sodiq va fidoyi jangchilar esa mukofotlangan.

#### Diplomatik mohirlik

Temur faqat harbiy kuch bilan emas, balki diplomatik siyosat orqali ham o‘z saltanatini mustahkamladi. U ko‘plab davlatlar bilan aloqalar o‘rnatdi, elchilar yubordi, savdo va madaniy aloqalarni rivojlantirdi.

- Temur diplomatiyani harbiy kuch bilan uyg‘unlashtirib, o‘z davlati uchun qulay sharoit yaratdi.
- U Yevropa davlatlari bilan ham aloqalar o‘rnatib, o‘z saltanatining nufuzini oshirdi.

“Temur tuzuklari” – meros sifatida

Temur o‘zining “Temur tuzuklari” orqali kelajak avlodlarga ibratli meros qoldirdi. Bu tuzuklarda davlat boshqaruvi, harbiy tartib, xalq bilan munosabatlar, soliqlar va tartib-qoidalar aniq belgilangan. “Temur tuzuklari” bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, adolatli boshqaruvning muhim manbasi sifatida qadrlanadi.

#### **Merosi**

Amir Temur vafotidan so‘ng ham uning nomi, siyosati va madaniy merosi asrlar davomida yashab kelmoqda. U yaratgan saltanat, o‘rnatgan tartib va qoidalar, bunyod etgan shaharlar va obidalar, ilm-fan va madaniyatga bergan homiyligi keyingi avlodlarga ulkan ta‘sir ko‘rsatdi. Temuriylar davri Markaziy Osiyo tarixida “Uyg‘onish davri” sifatida baholanadi.

Temuriylar sulolasi davomiyligi

Temur vafotidan soʻng uning avlodlari — Temuriylar sulolasi hokimiyatni davom ettirdi. Bu sulola XV–XVI asrlarda Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qildi.

- **Shohrux Mirzo** – Temurning oʻgʻli, saltanatni mustahkamlab, madaniyat va ilm-fan rivojiga katta hissa qoʻshdi.
- **Mirzo Ulugʻbek** – Temurning nabirasi, buyuk olim va astronom. U Samarqandda rasadxona qurib, yulduzlar jadvalini tuzdi. Ulugʻbekning ilmiy merosi jahon astronomiyasi tarixida muhim oʻrin tutadi.
- **Badiuzzamon va Husayn Boyqaro** – Temuriylar sulolasining keyingi vakillari, adabiyot va sanʼat rivojiga homiylik qilgan.

Samarqand – ilm-fan va madaniyat markazi

Temuriylar davrida Samarqand nafaqat siyosiy, balki ilmiy va madaniy markazga aylandi. Bu yerda koʻplab olimlar, shoirlar, sanʼatkorlar faoliyat yuritdi.

- **Ulugʻbek rasadxonasi** – dunyodagi eng yirik ilmiy markazlardan biri boʻlib, yulduzlar jadvali tuzildi.
- **Madrasalar** – Samarqandda koʻplab madrasalar qurilib, taʼlim tizimi rivojlandi.
- **Adabiyot va sanʼat** – Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi buyuk shoirlar ijod qildi.

Meʼmoriy meros

Temur va Temuriylar davrida qurilgan meʼmoriy obidalar bugungi kunda ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan.

- **Registon majmuasi** – dunyodagi eng goʻzal meʼmoriy yodgorliklardan biri.
- **Bibixonim masjidi** – ulkan diniy inshoot.
- **Gur-Emir maqbarasi** – Temurning dafn etilgan joyi, nafis meʼmorchilik namunasi.
- **Shahrisabzdagi Oqsaroy** – Temurning shaxsiy qarorgohi.

Jahon tarixidagi oʻrni

Amir Temur jahon tarixida buyuk sarkarda va davlat arbobi sifatida tanilgan. Uning yurishlari Osiyo va Yevropa siyosiy tarixiga katta taʼsir koʻrsatdi.

- Usmoniylar saltanati vaqtincha zaiflashdi.
- Hindiston siyosiy jihatdan zaiflashdi, ammo keyinchalik yangi sulolalar paydo boʻldi.
- Oltin Oʻrda zaiflashib, Rossiya hududida yangi siyosiy kuchlar shakllandi.

Bugungi kunda Amir Temur merosi

Bugungi Oʻzbekistonda Amir Temur nomi hurmat bilan tilga olinadi.

- Samarqandda Amir Temur muzeyi faoliyat yuritadi.
- Toshkentda Amir Temur maydoni va haykali mavjud.
- Oʻzbek xalqining tarixiy xotirasida Temur adolat, tartib va qudrat timsoli sifatida saqlanib qolgan.

**Xulosa**

Amir Temur hayoti va faoliyati nafaqat oʻz davrida, balki keyingi asrlarda ham jahon tarixiga ulkan taʼsir koʻrsatdi. U oʻzining sarkardalik isteʼdodi, siyosiy zakovati va adolatparvarligi bilan

Movarounnahrni qudratli davlatga aylantirdi. Temurning yurishlari Osiyo va Yevropa siyosiy tarixini o'zgartirdi, uning bunyodkorlik ishlari esa madaniyat va ilm-fan rivojiga katta hissa qo'shdi.

Temur hayotidan olinadigan saboqlar bugungi kun uchun ham dolzarbdir:

- **Adolat va tartib** – Temur davlat boshqaruvida adolatni eng muhim tamoyil sifatida ko'rdi. Bu tamoyil har qanday jamiyatning mustahkamligi uchun zarur.
- **Ilm-fan va madaniyatga e'tibor** – Temur ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish orqali o'z saltanatini mustahkamladi. Bugungi kunda ham taraqqiyotning asosi ilm va madaniyatdir.
- **Qat'iyat va sabr-toqat** – Temur murakkab vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmagan, har bir qarorni chuqur o'ylab qabul qilgan. Bu sifatlar har bir rahbar uchun muhimdir.
- **Diplomatik mohirlik** – Temur diplomatiyani harbiy kuch bilan uyg'unlashtirib, o'z davlati uchun qulay sharoit yaratdi. Bugungi kunda ham xalqaro munosabatlarda diplomatiya muhim rol o'ynaydi.

Amir Temur bugungi o'zbek xalqining tarixiy xotirasida adolat, tartib va qudrat timsoli sifatida saqlanib qolgan. Uning hayoti yosh avlod uchun ibratdir. Temurning merosi bizni tariximizni qadrlashga, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirishga, adolat va tartibni ustuvor qo'yishga undaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. **“Zafarnoma”**. – Amir Temur yurishlari va g'alabalari haqida asosiy tarixiy manba.
2. Amir Temur. **“Temur tuzuklari”**. – Davlat boshqaruvi va harbiy tartibga oid yozma meros.
3. Bartold V.V. **“Turkiston tarixi”**. – Markaziy Osiyo tarixiga oid klassik tadqiqot.
4. Qodirova M. **“The Role of Amir Temur in World Historiography and Source Studies”**. – Ilmiy maqola.
5. Vikipediya (O'zbekcha va inglizcha sahifalar). – Amir Temur hayoti va merosi haqida umumiy ensiklopedik ma'lumotlar.
6. Tarix.uz portali. – Temurning nasl-nasabi, siyosiy faoliyati va Temuriylar sulolasi haqida ma'lumot.
7. Mirzo Ulug'bek asarlari va tadqiqotlari. – Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojiga oid ma'lumotlar.
8. Beatrice Forbes Manz. **“The Rise and Rule of Tamerlane”**. – Temurning siyosiy faoliyati va saltanati haqida zamonaviy tadqiqot.
9. David Morgan. **“Medieval Persia”**. – Temur davri va uning Eron hamda Kavkazdagi yurishlari haqida ilmiy izohlar.
10. John Darwin. **“After Tamerlane: The Global History of Empire”**. – Temuriylar davlati va uning jahon tarixidagi o'rni haqida tahliliy asar.